

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

AKMALXONOV BOSITXON AZIXON O‘G‘LI

**MULK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY
JIHATLARI**

12.00.10 –Xalqaro huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

**Contents of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy
(PhD)**

Akmalxonov Bositxon Azizxon o'g'li

Mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy jihatlar.....3

Акмалхонов Боситхон Азизхон угли

Международно-правовые аспекты защиты права собственности.....23

Akmalkhonov Bositkhon Azizkhon ogli

International legal aspects of property rights protection ю.....43

E'lon qilingan ilmiy ishlar ro'uxati

Список опубликованных научных работ

List of published scientific works47

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

AKMALXONOV BOSITXON AZIZXON O‘G‘LI

**MULK HUQUQINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY
JIHATLARI**

12.00.10 –Xalqaro huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.2.PhD/Yu1490 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD) Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor

Mirhamidova Mohinnora Nurullayevna
yuridik fanlar falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament
tadqiqotlari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi DSc.07/03.06.2023.yu.22.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 26-aprel soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1382-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11-aprel kuni tarqatildi.

(2025-yil 11-aprel 5-raqamli reestr bayonnomasi).

S.S.Gulyamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Sh.N. Raxmanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
yuridik fanlar nomzodi (PhD), dotsent

D.N.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda mulk huquqini himoya qilish masalasi alohida dolzarblik kasb etib, BMT mulk huquqini inson huquqlari va barqaror rivojlanishning eng muhim jihati sifatida e'tirof etib kelmoqda. Mulk huquqlarini himoya qilish xalqaro indeksining (IPRI) 2024-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining 93 foizini va jahon yalpi ichki mahsulotining 98 foizini qamrab olgan 125 ta mamlakatda mulk huquqlarini himoya qilish darajasi bilan davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud. Mulk huquqlari kuchli himoyalangan mamlakatlar xorijiy investitsiyalarni 40-45 foiz ko'proq jalb etagan bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot 2,5 baravar yuqoriligi kuzatilgan (eng yuqori 20 foizlik mamlakatlarni eng quyi 20 foizlik mamlakatlar bilan taqqoslaganda)¹. Ushbu muammo, ayniqsa, mulkni himoya qilish mexanizmlari samarasiz yoki umuman mavjud bo'lmagan 46 ta rivojlanish darajasi pastroq mamlakatlar² uchun dolzarb hisoblanib, mazkur muammoni xalqaro huquqiy jihatidan chuqur tadqiq olib borish maqsadga muvofiq.

Jahonda mulk huquqi insonning ajralmas huquqi sifatida e'tirof etilgan hamda xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan bo'lsada, zamonaviy ilmiy munozaralar bu sohadagi bir qator fundamental muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Mulk huquqini inson huquqlari nuqtayi nazaridan nazariy tushunish va uni amalga oshirishning amaliy mexanizmlari o'rtasida sezilarli farq mavjud jumladan, Land Matrix Initiative tadqiqotlariga ko'ra, 2000-2021-yillarda rivojlanayotgan mamlakatlarda taxminan 49 million gektar yer mahalliy aholi huquqlarini buzadigan bitimlar obyektiga aylangan. Shuningdek, globallashtirish sharoitida mulk to'g'risidagi an'anaviy qarashlar mulkiy munosabatlarning yangi shakllari va raqamli huquqlar bilan to'qnash kelayotgani sababli, mulk huquqi tushunchasining umumbashariyligini ta'minlash alohida murakkab muammo hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda mulk huquqini himoya qilish huquqiy tizimning asosiy elementi hisoblanib, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar inson huquqlari hamda tadbirkorlik subyektlarining huquqiy kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan. "Fursatdan foydalanib, barcha hokimlarning e'tiborini bir masalaga qaratmoqchiman – mulk huquqiga oid qarorlarni ular tomonidan bekor qilishga yo'l qo'yilmaydi"³ degan so'zlar mamlakatimizda xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlar faoliyatini himoya qilish va investitsiya muhitini yaxshilash siyosatining amaliy ifodasidir. Shu sababli, 2022-yil 24-avgusta "Mulk huquqi daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvning oldini olish, xususiy mulkning kapitallashtirish darajasini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi" qabul qilingan⁴. Tadqiqotning dolzarbligi shunda

¹ International Property Rights Index 2024 // <https://internationalpropertyrightsindex.org/> (data obraheniya: 11.03.2024g.)

² The UN Least Developed Country category // <https://www.un.org/ru/conferences/least-developed-countries>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi tadbirkorlar bilan o'tkazgan muloqotidan // <https://xabar.uz/mahalliy/er-va-mulk-ajratish-haqidagi-qarorlarni-bekor-qilish-sud-orqali>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdagi PF-198-son "Mulk huquqi daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiy mulkni kapitallashtirish

namoyon bo'ladiki, an'anaviy tarzda milliy qonunchilik doirasida tartibga solinadigan mulk huquqi xalqaro-huquqiy kontekstda tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda va bu insoning asosiy huquqlarini himoya qilishning global tendensiyalarini aks ettirmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5495-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-apreldagi "Fuqarolarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar hamda o'zboshimchalik bilan qurilgan turar joylarga nisbatan mulk huquqini e'tirof etish bo'yicha bir martalik umumdavlat aksiyasini o'tkazish to'g'risida"gi PF-5421-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-yanvardagi "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 9-son Qarori ushbu sohadagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I-ustuvor yo'nalishi – "Axborot jamiyati va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy jihatdan rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni ro'yobga chiqarish yo'llari"ga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mulk huquqini himoya qilish, inson huquqlirini o'rganishda asosiy mavzu bo'lib, O'zbekiston hamda boshqa mamlakatlar olimlarining e'tiborini tortib kelayotgan bo'lsa ham bugungi kunda yetarli darajada o'rganilmagan.

Mulk huquqini himoya qilishning turli jihatlari bo'yicha tarixan to'planib qolgan muammolarni hal etishga qaratilgan tadqiqot natijalari bilan tanilgan eng mashhur mahalliy mualliflar qatorida A.X. Saidov, G. Yuldasheva, L.M. Burxanova, D.I. Imomova, A.N. Niyozova, D.A. Borotov, D.A. Chiniyevlarni ko'rsatish lozim. Ular o'z ilmiy ishlarida mulk huquqining nazariy jihatlari insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida tadqiq etishgan.

Zamonaviy xalqaro mulk huquqini himoya qilish institutining shakllanishiga katta hissa qo'shgan yaqin xorijlik mualliflardan E.A. Suxanov, S.A. Zinchenko, S.V. Chernichenko, A.X. Abashidze, A.N. Biryukov, L. Buxonova, V.V. Gavrilov, L.Yu. Gordiyenko, I.I. Lukashuk, A.S. Podshibyakin, K.S. Rijkov, E.G. Saveleva, V.V. Starjenetskiy, A.E. Tolstova, E.T. Usenko, Z.M. Chernilovski, Yu.A. Chichayeva, V.V. Shulyatevlarni alohida ta'kidlash lozim.

Mulk huquqi himoyasining shakllanishiga bag'ishlangan asarlari bilan tanilgan xorijlik olimlardan E. de Vattel, P. Guggenheim, J. Crawford, E. Gustav Otto Engel, G. Keckenbeek, D. Brearley, A. Cavalieri, D. O'Connell,

G. Schwarzenberger, John Sprankling, Alexander, G. S. Armour, J., Bethell, T., Blackaby, N., Boule, L., De Soto, H., Ederington L., Epstein, R. A., Fairfield, J. A., Fisher S.G., Graber D.A. va boshqalarni qayd etish joiz¹.

Turli huquq maktablari va tarixiy davrlarni ifodalovchi bu olimlar mulk huquqining turli jihatlarini tadqiq etganlar, biroq ularning ishlarida mulk huquqining xalqaro huquqiy himoya qilishning asoslari va zamonaviy mexanizmlari, mulk huquqi himoyasiga oid xalqaro normalarni milliy qonunchilikka tatbiq etish masalalari ilmiy ish sifatida o'rganilmaganligi va ushbu sohada tahlil qilish va takomillashtirish ehtiyoji mavjudligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ilmiy-tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida "Mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy jihatlari" mavzusi loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslari va mexanizmlarini hamda O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-nazariy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xalqaro huquqda mulk huquqi tushunchasi va himoyasini tadqiq etish;

xalqaro huquqda mulk huquqini himoya qilish institutining shakllanishi va taraqqiyotining tarixiy bosqichlarini tadqiq etish;

xalqaro huquqda mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarining zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qilish;

mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy asoslarini o'rganish va ushbu sohadagi asosiy xalqaro hujjatlarni tizimlashtirish;

O'zbekiston Respublikasining mulk huquqini himoya qilish sohasidagi milliy qonunchiligini kompleks tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlarda mulk huquqini himoya qilishning huquqiy tartibga solish xususiyatlarini ko'rib chiqish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan qiyosiy-huquqiy tahlil o'tkazish;

mulk huquqini himoya qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy normalarni O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga implementatsiya qilish jarayoni va xususiyatlarini o'rganish;

mulk huquqini himoya qilish sohasida xalqaro sud organlarining sud amaliyotini tahlil qilish;

O'zbekiston Respublikasida mulk huquqini himoya qilish tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash hamda ushbu sohadagi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti mulk huquqini xalqaro-huquqiy himoya qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlardir.

Tadqiqotning predmeti mulk huquqini himoya qilishga oid xalqaro-huquqiy normalar va ularning milliy-huquqiy normalar bilan o'zaro munosabati,

¹ **Izoh:** Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

shuningdek, mulk huquqini himoya qilish sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasi, ilmiy qarashlar hamda huquqiy nuqtayi nazarlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy, tizimli tahlil, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, umumlashtirish, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma'lumotlar tahlili kabi usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish mexanizmida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomaviy majburiyatlarini ijro etish masalasini alohida asos sifatida belgilash va bu borada xalqaro standartlarga muvofiq huquqiy tartibga solish tizimini takomillashtirish zarurligi asoslantirilgan;

chet el diplomatik vakolatxonasiga ajratiladigan yer uchastkasiga oid xalqaro shartnoma loyihasining ajralmas qismi hisoblangan xarita va rekvizitlar hamda tegishli asoslantiruvchi materiallarni Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan o'n ish kuni ichida tayyorlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish tartibi ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasining respublika sarhadlaridan tashqaridagi davlat mulkiga nisbatan mulkiy huquqlarni amalga oshirish masalalari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, mol-mulk joylashgan davlat qonunlari va xalqaro huquq normalari bilan kompleks ravishda tartibga solinishi asoslantirilgan;

jamoat uyushmalarining xorijiy davlatlardan pul mablag'lari va mol-mulk olish faoliyatini tartibga solishda ustavda belgilangan maqsadlarga muvofiqlik prinsipini qo'llash, bu boradagi huquqiy mexanizmlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va moliyaviy operatsiyalarning legitimligini ta'minlash zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarini olib qo'yish yer egalariga munosib kompensatsiya berilgan taqdirdagina huquqiy asoslangan ekanligi isbotlangan;

xorijiy diplomatik vakolatxonalarga yer uchastkalari ajratish uchun hujjatlarni tayyorlashning alohida tartibini o'rnatish zarurati asoslangan;

mulk huquqini himoya qilishning xalqaro standartlarini O'zbekiston milliy qonunchiligiga joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

jamoat birlashmalarining xorijiy manbalardan moliyaviy mablag'lar va mulk olishining huquqiy asoslari va shartlari asoslangan;

xorijiy mulkni milliyalashtirishda adolatli kompensatsiya tartiblari taklif etilgan;

tadqiqot materiallari mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari bo'yicha davlat organlari uchun tahliliy materiallar va tavsiyalar tayyorlashda foydalanilmoqda;

tadqiqotning xulosa va tavsiyalari O'zbekiston Respublikasi Ombudsmanining mulk huquqini himoya qilish masalalari bo'yicha fuqarolar murojaatlarini ko'rib chiqish amaliy faoliyatida qo'llanilmoqda.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo'llash amaliyoti, statistik

ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan hamda tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan holda amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, taklif va tavsiyalar, ilmiy-nazariy xulosalar ilm-fan, qonun ijodkorligi, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirish, inson huquqlari, milliy qonunchilikning tegishli normalarini izohlash, qonunchilikni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ularni amalga oshirish mulk huquqi himoya qilish masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga, shuningdek, huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy jihatlari" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda foydalanilgan:

yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yishga asos bo'ladigan maqsad sifatida O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarish kiritilishi oid taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-781-son Qonunining 4-moddasi uchinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsman) 2024-yil 15-fevraldagi 01-07/86-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini samarali bajarish va davlatlararo munosabatlarda shartnomaviy majburiyatlarni to'liq amalga oshirish uchun xizmat qilgan;

istisno tariqasida, xalqaro shartnoma loyihasida chet el diplomatik vakolatxonasiga ajratish uchun nazarda tutilgan yer uchastkasining xalqaro shartnoma loyihasining ajralmas qismi bo'lgan xaritasi va rekvizitlari hamda u bilan bog'liq asoslantiruvchi materiallar hokimliklar tomonidan tegishli so'rov qilib tushgan kundan e'tiboran o'n ish kuni davomida tayyorlanishi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi to'g'risida taklif O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyundagi "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'RQ-781-son Qonunining 13-moddasi uchinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining (Ombudsman) 2024-yil 15-fevraldagi 01-07/86-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif chet el diplomatik vakolatxonalariga yer uchastkalari ajratish jarayonini tezlashtirish va samarali tashkil etish uchun zamin yaratgan;

O'zbekiston Respublikasining respublika sarhadlaridan tashqaridagi davlat mulki hisoblangan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda mol-mulk qaysi davlatda joylashgan bo'lsa, shu davlatning qonunlari, shuningdek xalqaro huquq me'yorlari bilan tartibga solib turilishi bo'yicha taklif "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi qonuni 21-moddasining birinchi qismiga, O'zbekiston

Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni 2-moddasi yettinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 23-fevraldagi 04|10-10-20-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif O‘zbekistonning chet eldagi davlat mulkini boshqarish va undan foydalanishni huquqiy jihatdan tartibga solish, shuningdek xalqaro va milliy qonunchilikka muvofiqligini ta’minlash uchun xizmat qilgan;

jamoat uyushmalari o‘z ustavlarida yozib qo‘yilgan maqsadlar va vazifalarga muvofiq hamda qonunchilikda belgilanadigan tartibda o‘zga davlatlardan keladigan pul mablag‘larini hamda boshqa mol-mulkni olishlari mumkinligi to‘g‘risida taklif “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi qonuni 16-moddasining oltinchi qismiga O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish haqida”gi 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-sonli Qonuni 2-moddasi beshinchi qismini ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Demokratik institutlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari qo‘mitasining 2023-yil 23-fevraldagi 04|10-10-20-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklif jamoat uyushmalarining xorijiy moliyaviy manbalardan qonuniy asosda mablag‘ olish imkoniyatlarini kengaytirish va ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlash uchun imkon yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy tadbirda, jumladan 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqiyosida o‘tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya, davra suhbatlari va seminarlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish, shu jumladan 8 ta ilmiy maqola (4 ta xorijiy nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy jihatlarini o‘rganish dolzarbligi va zarurati, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, mavzu bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida batafsil ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Xalqaro huquqda mulk huquqini himoya qilishning nazariy masalalari**” deb nomlanib, unda xalqaro huquqda mulk huquqini

himoya qilish tushunchasi, vujudga kelishi, rivojlanish tarixi hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

Mulk huquqini himoya qilish xalqaro ommaviy huquqning muhim tarkibiy qismi bo'lib, mazkur huquq inson huquqlarining asosiy huquqlaridan biri sifatida tan olingan. Bugungi xalqaro maydonida mulk huquqi - adolat, barqarorlik va barqaror taraqqiyotni ta'minlash doirasida himoya qilinadi. Ushbu institut inson huquqlari xalqaro tizimi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning himoyasi - Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi kabi umumiy hujjatlar hamda mintaqaviy shartnomalar, jumladan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi orqali ta'minlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotida yetakchi olimlarning (P.Guggunxeym, E.Vattel, P.O.Kiriyenko, A.X.Saidov, Ye.G.Savelyeva, Ye.A.Suxanov, S.S.Alekseev, B.S.Chimni, L.Oppengeym, Ya.Braunli, E.Engi va boshqalar) mulk huquqini himoya qilish borasidagi fikrlari va ilmiy ishlari tahlil qilinib, dissertant mulk huquqi xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan asosiy inson huquqlaridan biri ekanligiga xulosa qiladi. Muallif fikricha, xalqaro huquqda mulk huquqini himoya qilish ommaviy va xususiy huquq elementlarini o'zida mujassamlashtirgan ham universal, ham o'ziga xos ta'rifini belgilaydi. Huquqiy an'analarning xilma-xilligi va iqtisodiy munosabatlarning globallashtirishini inobatga olgan holda, mulk huquqini himoya qilish instituti xalqaro inson huquqlari sohasida muhim o'rin egallaganini ma'lum qiladi. Global va mintaqaviy darajalarda yuridik pretsedentlar sonining ortishi mulk huquqini himoya qilish uchun xalqaro mexanizmlardan foydalanishning samaradorligini tadqiqot ishida ko'rsatilgan. Dissertant, shuningdek, mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy instituti paydo bo'lishi inson huquqlari, jumladan, mulk huquqi jamiyat va davlat uchun oliy qadriyatga aylangan davr bilan bog'liqligini ta'kidlaydi. Tadqiqot ishida mulk huquqini himoya qilishning milliy huquqiy tizimlardan xalqaro e'tirof etish va himoya qilishgacha bo'lgan rivojlanish jarayoni tahlil qilingan.

Dissertatsiyada mulk huquqi xalqaro inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida o'rganilib, mazkur huquq Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 17-moddasida, Inson huquqlari bo'yicha xalqaro bitimlar va bir qator mintaqaviy hujjatlarda mustahkamlangan. Shuningdek, insoning mol-mulkka erkin egalik qilishi, undan foydalanishi va uni tasarruf etishini ta'minlaydi hamda mulkni asossiz ravishda tortib olinishidan himoya qilish kafolatini o'z ichiga oladi. Tadqiqot ishida keltirilgandek "Tabiiy huquq" nazariyasi, mulk huquqi inson tabiati va uning erkinligidan kelib chiqishini ta'kidlangan, xalqaro huquq esa bu huquqning universalligini va milliy yurisdiksiyadan qat'i nazar, barcha uchun teng himoyalani belgilaydi.

Mulk huquqi himoyasining rivojlanish tarixi qadimgi huquqiy tizimlardan (Xammurabi qonunlari, Rim huquqi) boshlanib, Buyuk erkinliklar xartiyasi, burjua inqiloblari va yangi davrda tabiiy-huquqiy g'oyalarning shakllanishi kabi muhim bosqichlardan o'tganligi ishda namoyon etilgan. Bugungi kundagi xalqaro shartnomalar mulk huquqini insonning asosiy huquqi sifatida tan olish orqali shakllangan bo'lib, Inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Fuqarolik va siyosiy

huquqlar to'g'risidagi va Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida xalqaro paktlar kabi xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan.

Mulk huquqini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasi va Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasi kabi umumiy va mintaqaviy xalqaro shartnomalarni o'z ichiga oladi. Takidlash joiz, inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Inson huquqlari bo'yicha Amerikalararo sud hamda Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika komissiyasi singari xalqaro sud organlari mulk huquqini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega, ushbu organlarning pretsedent amaliyoti huquqiy me'yorlarni shakllantirishi va ularning turli yurisdiksiyalarda qo'llanilishini ta'minlaydi.

Mulk huquqi nafaqat shaxsiy huquq, balki jamiyatda muhim vazifalarni bajaruvchi ijtimoiy institut sifatida ham qaraladi, bu esa o'z yo'li bilan tenglik, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish kabi ijtimoiy manfaatlarni inobatga olish zarurligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, xalqaro huquq qonuniylik, mutanosiblik va adolatli tovon to'lash tamoyillariga rioya qilingan holda, mulk huquqi cheklanishi mumkinligini ta'kidlaydiki, agarda jamoat farovonligi uchun zarur bo'lsa.

Globalashuv va raqamlashtirish sharoitida mulk tushunchasi an'anaviy moddiy obyektlar (yer, bino) doirasidan allaqachon chiqib, intellektual mulk, raqamli aktivlar, kriptovalyutalar va genetik resurslar kabi nomoddiy aktivlarni o'z ichiga qamrab kelmoqda. Mulklarning bu yangi turlari xalqaro huquqda ularni tartibga solish va himoya qilishda yangicha yondashuvlarni talab etadi, masalan, BIMT va TRIPS bitimlar intellektual mulkni himoya qilish standartlarini mustahkamlaydi.

Globalashuv jarayonlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarda huquqiy aniqlikni ta'minlash uchun mulk huquqi himoyasiga oid normalarini bir xillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Standartlarni unifikatsiya qilish milliy qonunchilikdagi tafovutlarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, chegaralar aro bitimlar va investitsiyalarni himoya qilish uchun muhim rol o'ynashi, normalarni uyg'unlashtirish esa, milliy normativ-huquqiy hujjatlar, odatlar hamda xalqaro standartlar o'rtasidagi muvozanatni yaratishga yo'naltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Mulk huquqini himoya qilishning huquqiy asoslari va mexanizmlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida mulk huquqini himoya qilishning xalqaro hamda milliy jihatlari batafsil o'rganilgan. Ushbu bob doirasida xalqaro-huquqiy mexanizmlar hamda O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama tahlil qilingan. Shuningdek, turli xorijiy mamlakatlarning ushbu sohaga oid qonunchiligi batafsil qiyosiy tadqiq etilgan.

Mulk huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy jihatlarni o'rganish jarayonida muallif inson huquqlari tizimida mulk huquqining fundamental rolini ta'kidlab, asosiy xalqaro hujjatlarda o'z aksini topganligini ko'rsatgan hamda umumiy va mintaqaviy himoya mexanizmlarini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Umumiy mexanizmlar doirasida 1966-yilgi Xalqaro paktlar asosida faoliyat yurituvchi Inson huquqlari qo'mitasi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar qo'mitasi faoliyati batafsil ko'rib chiqilgan. Ularning mulk huquqini himoya qilish bo'yicha xalqaro standartlarni shakllantirishdagi muhim hissasi qayd etilgan.

Mintaqaviy mexanizmlar tahlili doirasida inson huquqlarini himoya qilishning Yevropa tizimiga, xususan, 1952-yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarni himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasining 1-sonli Protokoliga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif ushbu Protokolning 1-moddasini batafsil tahlil qilib, mazkur modda nafaqat o'zganing mulk huquqini hurmat qilish tamoyilini mustahkamlaydi, balki ushbu huquqni cheklashning yo'l qo'yiladigan aniq mezonlarini ham belgilaydi. Ta'kidlanishicha, bunday yondashuv shaxsiy huquqlar va ijtimoiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatli munosabatni aks ettiradi, bu esa Yevropa huquqiy an'anasining poydevori deb hisoblanadi.

Tadqiqot ishda mulk huquqini himoya qilishda xalqaro sud organlarining roliga katta e'tibor berilgan. Muallif Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Inson huquqlari bo'yicha Amerikalarda sud hamda Inson va xalqlar huquqlari bo'yicha Afrika komissiyasi amaliyotini qiyosiy tahlil qilgan. Ta'kidlanishicha, ushbu organlarning qarorlari nafaqat mulk huquqini himoya qilishning amaliy me'yorlarini shakllantiradi, balki xalqaro miqyosda turli huquqiy yondashuvlarni uyg'unlashtirishga ham xizmat qiladi. Shu bilan birga, dissertant xalqaro huquqdagi jiddiy kamchilik sifatida - mulk huquqini himoya qilish bo'yicha yagona ixtisoslashtirilgan xalqaro hujjatning mavjud emasligi, bu esa huquqni qo'llash amaliyotida ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini qayd etgan.

Shuningdek, dissertant O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini o'rganish qismida konstitutsiyaviy normalar va tadqiq soha qonunchiligini chuqur tahlil qilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-moddasiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda fuqarolarning mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish sohasidagi asosiy huquqlari mustahkamlangan. Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqligini batafsil tahlil qilish natijasida, xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka tatbiq etishning yuqori darajasi hamda mavjud muammolarini qayd etilgan.

Qiyosiy-huquqiy tadqiqot doirasida muallif xorijiy mamlakatlarda mulk huquqini himoya qilishning turli yondashuvlarini tahlil etgan bo'lib, mulk huquqni himoya qilishda huquqiy tartibga solishning Amerika va Britaniya modellarini taqqoslashga alohida e'tibor qaratilgan. Ta'kidlanishicha, AQShda mulk huquqini himoya qilish konstitutsiyaviy asosga ega bo'lsa Buyuk Britaniyada esa bu institut asosan maxsus qonunchilik bilan tartibga solinishi keltirilgan. Shu bilan birga, muallif turli huquqiy tizimlarga xos bo'lgan mulk huquqini himoya qilishning umumiy tamoyillarini aniqlaydi. Bular qonuniylik, mutanosiblik va mulk huquqini cheklashda adolatli kompensatsiya talablari kabi tamoyillardir. Hozirgi vaqtda, har bir davlat ushbu universal tamoyillarni o'z milliy xususiyatlari va huquqiy an'analarini hisobga olgan holda moslashtirishi ta'kidlanadi.

Shuningdek, muallif globallashtirish va iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarini tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va mulkchilikning yangi shakllarining paydo bo'lishi bilan bog'liq mulk huquqiga nisbatan yangi muammo va tahdidlar ko'rib chiqiladi. Ishda mavjud huquqiy mexanizmlarni zamonaviy voqelikka moslashtirish va raqamli

davrda mulk huquqini himoya qilishning yangi yondashuvlarini ishlab chiqish zarurligini qayd etiladi.

Tadqiqotda mulk huquqini himoya qilishning mavjud mexanizmlarining samaradorligi va ularni takomillashtirish yo'llarini izlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Muallif mulk huquqini amalga oshirishning amaliy muammolarini tahlil qilib, ushbu sohani huquqiy tartibga solishni yaxshilash bo'yicha aniq tavsiyalar beradi. Bunda xalqaro tajribani ham, huquqiy tizimning milliy xususiyatlarini ham inobatga olgan holda kompleks yondashuvning muhimligi ta'kidlanadi.

Shunday qilib, dissertatsiyaning ikkinchi bobi mulk huquqini himoya qilishning xalqaro va milliy mexanizmlarini har tomonlama o'rganishdan iborat bo'lib, ushbu institut rivojlanishining umumiy tendensiyalarini ham, uni turli huquqiy tizimlarda amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlarini ham yoritib beradi. O'tkazilgan tahlil ushbu sohani huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarining samaradorligini oshirish bo'yicha aniq takliflarni shakllantirishga imkon yaratadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida mulk huquqini himoya qilishni ta’minlashning amaliy jihatlari”** nomli uchinchi bobi O‘zbekistonda mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarining amaliy tatbiqi bo'yicha kompleks tadqiqotni o'z ichiga oladi. Bu tadqiqot xalqaro huquqiy normalarni joriy etish, sud amaliyoti va ushbu sohadagi mavjud muammolarni tahlil qilishni qamrab oladi.

Xalqaro huquqiy normalarni joriy etish jarayonlarini o'rganish doirasida muallif xalqaro standartlarni O'zbekiston milliy qonunchiligiga moslashtirish mexanizmlarini batafsil tahlil qilgan hamda mavjud huquqiy vositalarning samaradorligi va ularning xalqaro talablarga muvofiqligini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan. Dissertant milliy qonunchilikni xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirishda sezilarli yutuqlarga erishilganligini ta'kidlaydi, biroq huquqiy bazani yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatib o'tadi.

Tadqiqotda mulk huquqini himoya qilish sohasidagi sud amaliyotini tahlil qilish muhim o'rin egallaydi. Muallif umumiy yurisdiksiya sudlari va iqtisodiy sudlar qarorlarini har tomonlama o'rganib, xalqaro normalarni qo'llashdagi ijobiy tendensiyalarni hamda mavjud muammolarni aniqlaydi. Xususan, sudyalar korpusining malakasidagi kamchiliklar va huquqiy normalarni talqin qilishda yagona yondashuvning yo'qligi ta'kidlanadi. Sud amaliyoti tahlili asosida muallif mulk huquqini sud orqali himoya qilish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqadi. Ishda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va raqamlashtirish bilan bog'liq mulk huquqini himoya qilish sohasidagi zamonaviy muammolarga alohida e'tibor qaratilgan. Dissertant mulkchilikning yangi shakllari, jumladan, raqamli aktivlar va intellektual mulkni huquqiy tartibga solish masalalarini chuqur tadqiq etadi. Zamonaviy texnologik tendensiyalarni inobatga olgan holda qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar taqdim etilgan.

Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasida mulk huquqini samarali himoya qilishga to'sqinlik qilayotgan bir qator jiddiy muammolar aniqlangan. Bular qatoriga ma'muriy tartib-taomillarning yetarli darajada shaffof emasligi, idoralararo hamkorlikning murakkabligi va aholining huquqiy savodxonligi

pastligi kiradi. Muallif ushbu muammolarni hal etishning kompleks yondashuvini taklif etgan ushbu yondashuv me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish va mulkiy huquqlarni himoya qilish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiya muallifi mulk huquqini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha batafsil tavsiyalar ishlab chiqqan bo'lib, mulkiy huquqlarni himoya qilish bo'yicha maxsus organlarni tashkil etish, huquqshunoslar va sudyalarning uchun o'quv dasturlarini joriy etish, shuningdek ushbu sohada xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi tavsiyalar berilgan. Shu qatorda, aholining huquqiy savodxonligini oshirish va fuqarolarni o'z huquqlari haqida xabardor qilishning samarali mexanizmlarini yaratish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Mulk huquqini himoya qilishning mavjud institutlarining roli va samaradorligi tadqiqotning muhim qismi sifatida tahlil qilingan. Muallif mulkiy huquqlarni himoya qilishni ta'minlashda ishtirok etuvchi turli davlat organlarining faoliyatini ko'rib chiqadi va ularning ishini takomillashtirish choralari taklif etadi. Turli idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning o'zaro hamkorligini samarali tashkil etish masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Shuningdek, ishda mulk huquqini himoya qilish sohasidagi xalqaro tajriba va uni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari batafsil tahlil qilingan. Muallif turli mamlakatlarning muvaffaqiyatli amaliyotlarini o'rganib, ularni milliy sharoitlarga moslashtirish mexanizmlarini taklif etadi. Bunda O'zbekiston huquqiy tizimining o'ziga xos xususiyatlarini va mahalliy sharoitlarni hisobga olish zarurligi alohida ta'kidlanadi. Mulk huquqini himoya qilish jarayonlarini raqamlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda, muallif mulk huquqlarni himoya qilish samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilib, ushbu sohaga raqamli vositalarni joriy etish bo'yicha aniq yechimlarni taklif etadi.

Bob yakunida muallif O'zbekiston Respublikasida mulk huquqini himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bir qator nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalarni shakllantiradi. Takliflar xalqaro tajribani ham, O'zbekiston huquq tizimining milliy xususiyatlarini ham hisobga olgan holda, iqtisodiyotni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga yordam beradigan mulk huquqlarni himoya qilishning samarali va zamonaviy tizimini yaratishga yo'naltirilgan.

Umuman olganda, uchinchi bob O'zbekiston Respublikasida mulk huquqini himoya qilishning amaliy jihatlari har tomonlama o'rganib chiqadi. Unda nafaqat mavjud muammolar tahlili, balki ularni hal qilish bo'yicha aniq takliflar ham keltirilgan. Taqdim etilgan xulosa va tavsiyalar O'zbekistonda mulk huquqini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirishda muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ushbu sohada qonunchilikni yanada rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

“Mulq huquqini himoya qilishning xalqaro-huquqiy jihatlarini” mavzusi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot va tahlil natijasida ilmiy-nazariy, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi xulosalar chiqarildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.1. Mulq huquqini himoya qilish milliy tartibga solishdan xalqaro tartibga solishga qarab rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Mazkur jarayonning eng muhim bosqichi Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr bo‘lib, unda asosiy xalqaro hujjatlar qabul qilinishi bilan bo‘g‘liq. Bunday rivojlanish mulq huquqini nafaqat iqtisodiy tushuncha sifatida, balki inson qadr-qimmatini va erkinligining ajralmas qismi sifatida tan olinishini aks ettiradi.

1.2. Xalqaro huquqda mulq huquqi ikki tomonlama (dualistik) tabiatga ega. Bir tomondan, u xususiy shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xususiy huquq instituti hisoblansa, boshqa tomondan esa, u o‘zida ommaviy huquq elementlarini mujassam etadi, bu ayniqsa davlat harakatlaridan mulq huquqini himoya qilish va davlatlararo munosabatlar masalalarida yaqqol namoyon bo‘ladi.

1.3. Xalqaro huquqda mulq huquqini himoya qilish “avtonom” xususiyatga ega bo‘lib, milliy huquqiy ta’riflardan mustaqillikni anglatadi. Xalqaro sudlar, jumladan YEIHS, “mulq” va “mol-mulq” tushunchalarining o‘z kengaytirilgan talqinidan foydalanadi, bu moddiy obyektlar, iqtisodiy manfaatlar, litsenziyalar, mijozlar va ijtimoiy to‘lovlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu esa, milliy huquqiy tizimlar cheklovlarini yengib o‘tib, mulkiy huquqlarning universal himoyasini ta’minlaydi.

1.4. Xalqaro sud organlari o‘z amaliyoti orqali mulq huquqini himoya qilishning yagona standartlarini shakllantiradilar, ya’ni davlatlarning mulq huquqiga aralashuv chegaralarini belgilaydilar hamda bunday aralashuvni baholash mezonlari va adolatli kompensatsiya prinsiplarini ishlab chiqadilar. Ularning qarorlari pretsedentlar yaratadi, bu esa milliy qonunlarga ta’sir qilishi va global darajada mulq huquqini himoya qilishni uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

1.5. Xalqaro mulq huquqi normalarini milliy qonunchilikka joriy etishda huquqiy tizimlar (umumiy, fuqarolik, islom huquqi) orasidagi farqlar va xalqaro majburiyatlar bilan milliy manfaatlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati tufayli qiyinchiliklar yuzaga keladi. Muammolar qonunchilikdagi o‘zgarishlarga qarshilik, milliy sudlar tomonidan normalarning turlicha talqin qilinishi va joriy etishning suverenitetni cheklash sifatida qabul qilinishini o‘z ichiga oladi.

1.6. Raqamlashtirish va globallashtirish mulq huquqi uchun yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda va xalqaro huquqni zamonaviy voqelikka moslashtirish talab etilmoqda. Kriptovalyutalar, tokenlar, virtual mulq paydo bo‘lishi, “sharing economy” rivojlanishi va ma’lumotlar qiymatining oshishi mulq huquqining an’anaviy tushunchalarini qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Mulqning bu yangi shakllari va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish uchun innovatsion yondashuvlar va mavjud huquqiy tamoyillarning moslashuvchan talqini zarur.

1.7. Mulk huquqini milliy darajada samarali himoya qilish uchun keng qamrovli yondashuv zarur. Ushbu yondashuv qonunchilikni takomillashtirish, sud tizimini mustahkamlash, nizolarni hal etishning muqobil mexanizmlarini rivojlantirish hamda milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish kabi chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

1.8. Zamonaviy xalqaro huquq mulk huquqini himoya qilish va jamoat manfaatlarini o‘rtasida muvozanatni topishga bir necha muhim jihatlardan orqali intilmoqda: mulkning ijtimoiy vazifasini tan olish (huquq mutlaq emasligini e‘tirof etish), ekologik cheklolarni joriy etish, madaniy merosni muhofaza qilish, investorlar huquqlarini himoyalagan holda iqtisodiy taraqqiyotni ta‘minlash, ijtimoiy tengsizlik muammolarini hal etish va milliy xavfsizlikni ta‘minlash. Bu jihatlardan orqali xalqaro huquq muvozanatli yondashuvni shakllantirmoqda.

1.9. Zamonaviy xalqaro huquqda mulk huquqi sof iqtisodiy huquqdan inson qadr-qimmati va shaxsiy erkinligini ta‘minlash unsuriga evolyutsiya qilmoqda. Bu huquq asosiy huquqlarni (turar-joy va munosib turmush darajasiga ega bo‘lish) ro‘yobga chiqarish bilan bog‘lanib, inson qadr-qimmati uchun zarur bo‘lgan "minimal yadro" tushunchasini o‘z ichiga oladi. Himoyaga muhtoj guruhlarining mulk huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy tengsizlik muammolarini hal etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

1.10. Mulkni himoya qilish sohasidagi xalqaro huquqning taraqqiyoti turli huquqiy tizimlarning yaqinlashuviga olib kelmoqda. Bu jarayon mintaqaviy birlashmalar (Yevropa Ittifoqi, YeOII) doirasida qonunchilikni uyg‘unlashtirish, milliy qonunlarga xalqaro standartlarni tatbiq etish, mamlakatlar o‘rtasida samarali tajribalar almashish hamda mulkchilikning yangi shakllarini, xususan, raqamli aktivlarni tartibga solishga oid umumiy yondashuvlarni shakllantirish orqali namoyon bo‘lmoqda.

